

ONA TILI DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING DIALOGIK NUTQINI SAMARALI USULLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Turapova Ra'no Barat qizi

Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20759204>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish va takomillashtirish bilan bog'liq dolzarb pedagogik muammolar tahlil qilingan. Dialogik nutqning o'quvchilarda fikrni aniq ifodalash, suhbatdoshni tinglash, savol berish, mazmunli javob qaytarish, fikrni dalillash va muloqot madaniyatiga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni ochib berilgan. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida dialogik nutqni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan metodik, psixologik va tashkiliy omillar tavsiflangan. Jumladan, darslarda o'qituvchi nutqining ustunligi, yopiq savollarning ko'pligi, barcha o'quvchilarga bir xil topshiriq berilishi, o'quvchilarning individual nutqiy imkoniyatlari yetarlicha hisobga olinmasligi hamda dialogik faoliyatni baholash mezonlarining aniq belgilanmagani muhim muammolar sifatida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili darsi, dialogik nutq, nutqiy kompetensiya, variativ yondashuv, interfaol metod, rolli o'yin, muammoli vaziyat, savol-javob, muloqot madaniyati, kommunikativ faoliyat.

Bugungi ta'lim tizimida o'quvchining ma'lum hajmdagi bilimlarni eslab qolishi va ularni takrorlashi yetarli natija hisoblanmaydi. Jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlar o'quvchilardan mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish, o'z nuqtayi nazarini asoslash, boshqalar bilan hamkorlik qilish va turli vaziyatlarda samarali muloqot olib borishni talab etmoqda. Mazkur ko'nikmalarning dastlabki asoslari boshlang'ich ta'lim bosqichida shakllantiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining shaxs sifatida rivojlanishida ona tili darslari alohida o'rin tutadi. Ona tili bolaga nafaqat grammatik qoidalarini o'rgatadi, balki uning tafakkuri, dunyoqarashi, nutqiy madaniyati va muloqot qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchi til vositalarini qanchalik ongli o'zlashtirsa, o'z fikrini shunchalik aniq, tushunarli va ta'sirchan ifodalay oladi.

Nutqiy faoliyatning muhim shakllaridan biri dialogik nutqdir. Dialogik nutq ikki yoki undan ortiq shaxs o'rtasida kechadigan savol-javob, fikr almashish, munosabat bildirish, aniqlashtirish va umumiy xulosaga kelishga asoslangan muloqot jarayonidir. Dialog davomida har bir replika avvalgi fikrga bog'lanadi va keyingi javobning mazmuniga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli dialogik nutq o'quvchidan nafaqat gapirish, balki suhbatdoshni diqqat bilan tinglash, uning fikrini anglash va vaziyatga mos javob tayyorlashni ham talab qiladi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ayrim boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z fikrini mustaqil bayon qilishda, savol tuzishda, suhbatni davom ettirishda yoki o'z qarashini asoslashda qiyinchilikka duch keladi. Ularning javoblari ko'pincha bir so'z yoki sodda gap bilan cheklanadi. Ba'zi o'quvchilar tayyor namuna asosida gapira olsa-da, yangi nutqiy vaziyatda mustaqil dialog tuzishga qiynaladi. Mazkur holat ona tili darslarida dialogik nutqni rivojlantirish metodikasini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Maqolaning maqsadi ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish bilan bog'liq dolzarb muammolarni aniqlash hamda samarali metod va mashqlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun dialogik nutqning pedagogik mohiyatini ochib berish, amaliyotda uchraydigan muammolarni tasniflash, samarali usullarni tavsiflash va ularni ona tili darslariga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Dialogik nutq masalasi psixologiya, pedagogika, tilshunoslik va ta'lim metodikasida keng o'rganilgan. L.S. Vigotskiy nutq va tafakkur rivojini ijtimoiy

muloqot bilan bog'liq holda izohlaydi. Uning qarashlariga ko'ra, bolaning yuqori ruhiy funksiyalari dastlab boshqa insonlar bilan hamkorlik jarayonida shakllanadi, keyinchalik esa shaxsning ichki faoliyatiga aylanadi. Bu fikr dialogik nutqni faqat tilga oid ko'nikma emas, balki bolaning fikrlash va ijtimoiylashuv vositasi sifatida baholashga asos bo'ladi.

M.M. Baxtin nutqning dialogik tabiatiga e'tibor qaratib, har bir fikrning boshqa fikrga javob yoki munosabat shaklida vujudga kelishini ta'kidlagan. Dialogda gapiruvchi suhbatdoshning javobini kutadi, o'z nutqini unga moslashtiradi va muloqot maqsadiga muvofiq tarzda davom ettiradi. Shuning uchun dialogik nutq oldindan tayyorlangan gaplarni ketma-ket aytish emas, balki o'zaro ta'sirga asoslangan ijodiy nutq jarayonidir.

N. Mercer ta'lim jarayonidagi suhbatni o'quvchilarning birgalikda fikrlashi va bilim yaratishi uchun muhim vosita sifatida baholaydi. Uning fikricha, o'quvchilar fikrlarini tushuntirishi, dalillar keltirishi, boshqalarning qarashlariga munosabat bildirishi va umumiy xulosaga kelishi orqali tafakkur jarayoni faollashadi.

R. Alexander dialogik ta'limda o'qituvchining vazifasi tayyor javobni talab qilish emas, balki o'quvchilarni fikrlashga undaydigan muloqotni tashkil etishdan iboratligini ko'rsatadi. Bunda savollarning mazmuni, o'quvchiga javob uchun beriladigan vaqt, suhbatdagi teng ishtirok va fikrlarning davomiy rivojlantirilishi muhim hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasiga oid tadqiqotlarda dialogik nutq ona tili va o'qish savodxonligi darslarining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. O'quvchi matnni o'qish, savollarga javob berish, qahramonlarning xatti-harakatini baholash, voqealar haqida o'z fikrini bildirish va suhbatda ishtirok etish orqali nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi.

Biroq mavjud metodik ishlarda dialogik nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar ko'pincha umumiy tavsiyalar shaklida beriladi. O'quvchilarning individual tayyorgarligi, lug'at boyligi, muloqotga kirishish xususiyati va nutqiy

qiyinchiliklarini hisobga olish masalasi esa har doim ham yetarlicha yoritilmaydi. Shuning uchun dialogik topshiriqlarni variativ va differensial tarzda tashkil etish muhim metodik vazifa bo'lib qolmoqda.

Dialogik nutqni rivojlantirish jarayoni quyidagi tarkibiy komponentlar asosida tahlil qilindi:

- suhbatdoshni tinglash va uning fikrini tushunish;
- muloqotni boshlash;
- savol tuzish va berish;
- savolga mazmunli javob qaytarish;
- oldingi fikrni davom ettirish;
- o'z munosabatini ifodalash;
- fikrni sabab va misollar bilan asoslash;
- muloqot odobiga rioya qilish;
- dialogni mantiqiy yakunlash.

Ona tili darslarida dialogik faoliyatni tashkil etishga doir muammolar metodik, psixologik, lingvistik va tashkiliy omillar doirasida tasniflandi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda samarali bo'lishi mumkin bo'lgan mashq va metodlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, nutqiy imkoniyatlari hamda darsning didaktik maqsadiga muvofiq tanlandi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish ko'p omilli pedagogik jarayon hisoblanadi. Uning samaradorligiga o'qituvchining metodik tayyorgarligi, o'quvchilarning nutqiy faolligi, sinfdagi psixologik muhit, topshiriqlarning mazmuni va baholash tartibi ta'sir ko'rsatadi.

An'anaviy darslarda asosiy nutqiy faollik ko'pincha o'qituvchi zimmasiga tushadi. O'qituvchi mavzuni tushuntiradi, savol beradi, o'quvchi javobini to'ldiradi va yakuniy xulosani o'zi bayon qiladi. Bunday darsda o'quvchi tinglovchi yoki qisqa javob beruvchi ishtirokchi sifatida qolib ketadi.

Dialogik nutqni rivojlantirish uchun o'quvchilarga ko'proq gapirish, savol berish, fikr almashish va o'zaro munosabat bildirish imkoniyati yaratish lozim.

O'qituvchi esa suhbatning yagona markazi emas, balki uni tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi vazifasini bajarishi kerak.

Ona tili darslarida "Kim?", "Nima?", "Qayerda?", "Qachon?" kabi bitta aniq javobni talab qiladigan savollardan foydalanish zarur. Biroq dars faqat shunday savollar bilan cheklanib qolsa, o'quvchining mustaqil fikrlashi va keng javob tuzishi uchun imkoniyat kamayadi.

Dialogik nutqni rivojlantirishda "Nima uchun?", "Siz qanday fikrdasiz?", "Boshqacha yo'l tutish mumkinmide?", "Qahramonning o'rnida bo'lsangiz, nima qilardingiz?" kabi ochiq savollar muhim ahamiyatga ega. Bunday savollarga bitta tayyor javob mavjud emas. O'quvchi fikr yuritadi, sabablarni izohlaydi va boshqa o'quvchilarning qarashlariga munosabat bildiradi.

Bir sinfdagi o'quvchilarning nutqiy tayyorgarligi bir xil bo'lmaydi. Ayrim o'quvchilar fikrini erkin va tez ifodalasa, boshqalari kerakli so'zni topish, gapni boshlash yoki suhbatni davom ettirishda qiynaladi. Barcha o'quvchilarga murakkabligi bir xil bo'lgan topshiriq berilishi ularning bir qismini faoliyatdan chetda qoldirishi mumkin.

Nutqiy tayyorgarligi past o'quvchiga tayanch so'zlar, gap boshlanmalari yoki namunaviy savollar berilishi kerak. O'rta darajadagi o'quvchi dialogdagi bo'sh replikalarni mustaqil to'ldirishi mumkin. Yuqori darajadagi o'quvchiga esa muammoli vaziyatni muhokama qilish, fikrni dalillash yoki suhbatning muqobil variantini yaratish topshiriladi.

Dialogik nutqning mazmunli va ravon bo'lishi o'quvchining so'z boyligiga bog'liq. Kerakli so'zlarni bilmagan yoki ularni nutq vaziyatiga mos qo'llay olmagan bola fikrini to'liq ifodalashda qiynaladi.

Shuning uchun dialogik faoliyatdan oldin mavzuga oid faol lug'at ustida ishlash zarur. Yangi so'zlarning ma'nosini aniqlash, ularni gapda qo'llash, ma'nodosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlarni topish dialog tuzishni yengillashtiradi.

Ba'zi o'quvchilar o'z fikrining noto'g'ri baholanishidan qo'rqishi, sinfdoshlari oldida gapirishdan tortinishi yoki xato qilishdan cho'chishi mumkin. Bunday psixologik holat o'quvchining bilimidan qat'i nazar, uning nutqiy faolligini kamaytiradi.

Sinfda o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan muhit yaratilishi lozim. O'quvchining fikri darhol keskin tanqid qilinmasligi, xatolar esa rivojlanish uchun tabiiy jarayon sifatida qabul qilinishi kerak. O'qituvchining qo'llab-quvvatlovchi munosabati o'quvchini faol suhbatga undaydi.

O'quvchining dialogik faoliyatini faqat grammatik to'g'rilik yoki gaplar soni bilan baholash yetarli emas. Dialogda tinglash, savolning aniqligi, javobning mavzuga mosligi, replikalarning o'zaro bog'liqligi, fikrni asoslash va muloqot odobiga rioya qilish kabi ko'rsatkichlar ham muhimdir.

Aniq mezonlarning mavjudligi o'qituvchiga xolis baholash, o'quvchiga esa o'z nutqini takomillashtirish yo'nalishini anglash imkonini beradi.

Dialogik nutqni rivojlantirish tasodifiy mashqlar bilan cheklanmasligi, ma'lum tizim asosida amalga oshirilishi kerak.

Birinchi bosqichda o'quvchilarning mavjud nutqiy imkoniyatlari aniqlanadi. Bunda suhbatni boshlash, savol tuzish, javob qaytarish va fikrni davom ettirish ko'nikmalari kuzatiladi.

Ikkinchi bosqichda mavzuga oid so'z va nutqiy qoliplar o'rgatiladi. O'quvchilar salomlashish, savol berish, iltimos qilish, rozilik yoki norozilik bildirish, minnatdorlik aytish kabi muloqot birliklarini mashq qiladi.

Uchinchi bosqichda tayyor yoki yarim tayyor dialoglardan foydalaniladi. O'quvchilar replikalarni tartibga keltiradi, bo'sh qismlarni to'ldiradi va namunani rollar asosida ijro etadi.

To'rtinchi bosqichda rasm, matn yoki vaziyat asosida mustaqil dialog tuziladi. Bu bosqichda tayanch vositalari asta-sekin kamaytiriladi.

Beshinchi bosqichda muammoli suhbat va munozaralar tashkil etiladi. O'quvchilar o'z fikrini dalillash, boshqalarning qarashiga munosabat bildirish va umumiy xulosaga kelishni o'rganadi.

Yakuniy bosqichda refleksiya o'tkaziladi. O'quvchilar o'z suhbatini quyidagi savollar asosida tahlil qiladi:

- Men savolni aniq bera oldimmi?
- Sherigimning fikrini tingladimmi?
- Javobimni sabablar bilan tushuntirdimmi?
- Suhbat davomida qaysi so'zlarni to'g'ri qo'lladim?
- Keyingi safar nimani yaxshilashim kerak?

Nazariy tahlil va pedagogik kuzatishlar ona tili darslarida dialogik nutqni rivojlantirish uchun o'quvchiga muntazam nutqiy faoliyat imkoniyati yaratilishi kerakligini ko'rsatadi. Dialogik ko'nikmalar faqat qoidalarni tushuntirish yoki tayyor suhbatlarni yodlash orqali shakllanmaydi. O'quvchi turli vaziyatlarda savol berishi, javob qaytarishi, fikr bildirish va suhbatni boshqarishni amalda mashq qilishi zarur.

Juftlik va kichik guruhlarda ishlash o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi. Bunday faoliyatda bir vaqtning o'zida bir necha o'quvchi suhbat olib boradi. Butun sinf bilan tashkil etiladigan savol-javobda esa ko'pincha faqat faol o'quvchilar qatnashadi.

Variativ topshiriqlar o'quvchilar o'rtasidagi individual farqlarni hisobga olish imkonini beradi. Tayanchga muhtoj bola namunaviy iboralardan foydalanib suhbatga kirishadi. Nutqiy tayyorgarligi yuqori o'quvchi esa mustaqil muhokama va dalillashga yo'naltiriladi. Natijada barcha o'quvchilar bir xil mavzu doirasida, ammo o'z imkoniyatiga mos darajada faoliyat yuritadi.

Ochiq savollar o'quvchilarni kengroq fikrlashga undaydi. Ular javobni eslash bilan cheklanmay, voqea va hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlaydi, shaxsiy tajribasiga murojaat qiladi va o'z qarashini asoslaydi.

Dialogik nutqning rivojlanishi faqat til darslaridagi natija bilan cheklanmaydi. Savol berish, tinglash va fikrni izohlash ko'nikmalari matematika, tabiiy fanlar, tarbiya va boshqa fanlarni o'zlashtirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli dialogik yondashuvni fanlararo darajada qo'llash maqsadga muvofiq.

Ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining dialogik nutqini takomillashtirish ta'limning muhim pedagogik vazifalaridan biridir. Dialogik nutq o'quvchining o'z fikrini aniq ifodalashi, suhbatdoshni tinglashi, savol berishi, mazmunli javob qaytarishi, fikrini dalillashi va muloqot madaniyatiga rioya qilishini ta'minlaydi.

Dialogik nutqni rivojlantirish jarayonida o'qituvchi nutqining ustunligi, yopiq savollarning ko'pligi, bir xil topshiriqlardan foydalanish, lug'at boyligining yetarli emasligi, o'quvchilarning tortinchoqligi va baholash mezonlarining noaniqligi kabi muammolar uchraydi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun ona tili darslarida juftlikdagi suhbat, rolli o'yin, muammoli vaziyat, "Savollar zanjiri", "Dialogni davom ettir", "Qahramon bilan intervyu" va "Fikrga munosabat bildir" kabi usullardan tizimli foydalanish lozim.

Dialogik topshiriqlar o'quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirilishi, sodda mashqlardan mustaqil muhokamaga tomon bosqichma-bosqich murakkablashtirilishi kerak. Nutqiy faoliyat natijalarini mavzuga muvofiqlik, mantiqiy izchillik, savol va javob sifati, lug'at boyligi, tinglash ko'nikmasi hamda muloqot odobiga rioya qilish mezonlari asosida baholash maqsadga muvofiq.

Ona tili darslarida mazmunli, erkin va o'zaro hurmatga asoslangan muloqot muhitining yaratilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarining dialogik nutqi bilan birga mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi va kommunikativ kompetensiyasini ham rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. – Toshkent.
3. Vigotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva: Pedagogika.
4. Baxtin M.M. Nutq janrlari va dialogik munosabatlar. – Moskva.
5. Mercer N. Words and Minds: How We Use Language to Think Together. – London: Routledge, 2000.
6. Alexander R. Towards Dialogic Teaching: Rethinking Classroom Talk. – Cambridge: Dialogos.
7. Littleton K., Mercer N. Interthinking: Putting Talk to Work. – London: Routledge, 2013.
8. Turapova R.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dialogik nutqini shakllantirish darajasini o'rganishning pedagogik xususiyatlari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro, 2024. – №1. – B. 251–254. – DOI: 10.53885/edinres.2024.01.1.053.
9. Turapova R.B. Variativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari // Maktabgacha va maktab ta'limi. – Toshkent, 2025. – №11. – B. 852–856. – DOI: 10.5281/zenodo.17640664.
10. Turapova R.B. Variativ yondashuv asosida o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish dolzarb masalalari // Inter Education & Global Study. – Buxoro, 2025. – №3. – B. 279–288.